



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No6
MAXSUS SON

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref

BAKALAVR TALABALARINING MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr.
2026-yil, iyun.*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanov Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

TURIZMDA INVESTITSION MUHITNI YAXSHILASH VA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI	21
Ergashkulov Muyinjon Umedovich	
“AVTO PORLOQ KELAJAK 2020” XKNING TASHKILIY-IQTISODIY TAVSIFI VA MOLIYAVIY FAOLIYATI TAHLILI	28
Misirov Asliddin Mamasobirovich Eshdavlato T.A.	
MOLIYAVIY HOLAT TO'G'RSIDAGI HISOBOT KO'RSATKICHLARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI.....	32
Misirov Asliddin Mamasobirovich Qodirov B.	
MOLIYAVIY HOLAT TO'G'RSIDAGI HISOBOTNI TUZISH VA TAQDIM ETISHNING ME'YORIYHUQUQIY ASOSLARI	36
Misirov Asliddin Mamasobirovich Saidmurodov J.N.	
“AVTO PORLOQ KELAJAK 2020” XKD MOLIYAVIY HOLAT TO'G'RSIDAGI HISOBOTNI TUZISH AMALIYOTI	40
Misirov Asliddin Mamasobirovich Xalilov J.H.	
MOLIYAVIY HOLAT TO'G'RSIDAGI HISOBOTNING IQTISODIY MOHIYATI VA AHAMIYATI.....	45
Misirov Asliddin Mamasobirovich Xamroqulov A.X.	
GEOMETRIC FIGURE DRAWING USING MODERN PROGRAMMING LANGUAGES.....	49
Daminova Barno Esanovna Asrorova Nilufar Bobur qizi Botirova Shodiya Turdimurod qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIBBIY XIZMAT KO'RSATISHNI TASHKIL ETISHNING XORIJ TAJRIBALARI	56
Baxtiyorova Vasila Muzaffarovna	
XORAZM VILOYATIDA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH ORQALI BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHNING IQTISODIY-EKOLOGIK MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	60
Kurbanbayev Shoxruh Mirzo Zafar o'g'li	
XOTIN-QIZLAR BANDLIGI VA DAROMADLARINI OSHIRISHNING IJTIMOIY-IQTISODIY MUAMMOLARI.....	65
Kozimjonova Saidaxon Alisher qizi	
GLOBAL IQTISODIY TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI, EKSPORT VA IMPORT KO'RSATKICHLARINI OPTIMALLASHTIRISH STRATEGIYALARI	69
Nematullayev Hamidullo Azizillo o'g'li	



GLOBAL IQTISODIY TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI, EKSPORT VA IMPORT KO'RSATKICHLARINI OPTIMALLASHTIRISH STRATEGIYALARI

Nematullayev Hamidullo Azizillo o'g'li

Andijon davlat texnika instituti

“Buxgalteriya hisobi va audit” yo'nalishi 3-kurs talabasi

E-mail: hamidullonematullaev.07@gmail.com

Ilmiy rahbar: Eshonov Muhammad Ayub Hoshimjon o'g'li

Andijon davlat texnika instituti

“Buxgalteriya hisobi” kafedrası i.f.n., dotsent

ANNOTATSIYA. Global iqtisodiy transformatsiyalar, geosiyosiy o'zgarishlar va raqamli texnologiyalar rivojlanishi sharoitida milliy iqtisodiyotning tashqi savdo aylanmasi, eksport salohiyatini oshirish hamda import tarkibini optimallashtirish masalalari tizimli tahlil qilingan. Tashqi savdo balansining barqarorligini ta'minlash, xomashyoga yo'naltirilgan eksportdan yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar eksportiga o'tish va import tarkibini takomillashtirishda tarif hamda notarif vositalarning samaradorligi baholangan. Ko'rsatkichlar dinamikasi va tarkibiy o'zgarishlar ekonometrik modellar asosida prognoz qilinib, milliy iqtisodiyotning xalqaro raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan uzoq muddatli strategik taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: tashqi savdo aylanmasi, eksport tarkibi, importni optimallashtirish, savdo balans, globallashtirish, diversifikatsiya, tarif siyosati, Jahon savdo tashkiloti.

АННОТАЦИЯ. Проведен системный анализ внешнеторгового оборота национальной экономики, вопросов повышения экспортного потенциала и оптимизации структуры импорта в условиях глобальных экономических трансформаций, геополитических изменений и развития цифровых технологий. Оценена эффективность тарифных и нетарифных инструментов в обеспечении устойчивости внешнеторгового баланса, переходе от сырьевого экспорта к экспорту готовой продукции с высокой добавленной стоимостью, а также в совершенствовании структуры импорта. На основе эконометрических моделей спрогнозированы динамика показателей и структурные изменения, разработаны долгосрочные стратегические предложения и рекомендации, направленные на повышение международной конкурентоспособности национальной экономики.

Ключевые слова: внешнеторговый оборот, структура экспорта, оптимизация импорта, торговый баланс, глобализация, диверсификация, тарифная политика, Всемирная торговая организация.

ABSTRACT. A systematic analysis of the national economy's foreign trade turnover, export potential enhancement, and import structure optimization under conditions of global economic transformation, geopolitical changes, and rapid digital development is presented. The effectiveness of tariff and non-tariff instruments in maintaining the stability of the trade balance, facilitating the transition from raw material exports to high-value-added finished products, and improving import structures is evaluated. Based on econometric models, the dynamics of key indicators and structural changes are forecasted, and long-term strategic recommendations aimed at strengthening the international competitiveness of the national economy are developed.

Keywords: foreign trade turnover, export structure, import optimization, trade balance, globalization, diversification, tariff policy, World Trade Organization.

KIRISH

XXI asrning uchinchi o'n yilligi global iqtisodiy tizim uchun chuqur tarkibiy o'zgarishlar, geosiyosiy noaniqliklar va texnologik inqiloblar davri bo'ldi. Jahon iqtisodiyoti integratsiya va globallashtirish jarayonlarining yangi bosqichiga qadam qo'yar ekan, har bir milliy davlatning xalqaro mehnat taqsimotidagi o'rni va tashqi iqtisodiy faoliyat (TIF) ko'rsatkichlari uning barqaror rivojlanishini belgilovchi asosiy omillardan biriga aylanmoqda. Milliy



iqtisodiyotlarning rivojlanish darajasi va makroiqtisodiy barqarorligi bevosita ularning tashqi savdo aylanmasi hajmi, eksport tarkibining diversifikatsiyalashganligi hamda import omillarining oqilona boshqarilishi bilan chambarchas bog'liqdir. Tashqi savdo aylanmasi milliy mahsulotning jahon bozorida tan olinishi va mamlakat ichki bozorining xalqaro tovar oqimlari bilan integratsiyalashuv darajasini ko'rsatuvchi integral indikator hisoblanadi. So'nggi yillarda dunyo miqyosida kuzatilayotgan proteksionistik tendensiyalarning kuchayishi, an'anaviy logistik zanjirlarning transformatsiyalashuvi va yangi mintaqaviy iqtisodiy bloklarning shakllanishi tashqi savdo balansini muvozanatda saqlash masalasining ahamiyatini yanada oshirmoqda. Bunday sharoitda eksport ko'rsatkichlarini sifat va miqdor jihatdan yaxshilash, ayniqsa, xomashyo eksportidan tayyor va yuqori texnologik mahsulotlar eksportiga bosqichma-bosqich o'tish iqtisodiy rivojlanishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Import ko'rsatkichlarini boshqarish esa nafaqat ichki bozorni muvozanatli rivojlantirish vositasi, balki milliy sanoatni modernizatsiya qilish va zamonaviy texnologiyalarni jalb etishning strategik manbai hamdir. Importning oqilona tarkibi ichki ishlab chiqarishni rag'batlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash imkonini beradi. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, unda global iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida milliy iqtisodiyotning tashqi savdo siyosatini zamonaviy yondashuvlar asosida shakllantirish, eksportni rag'batlantirishning yangi mexanizmlarini joriy etish va import tarkibini maqbullashtirish orqali milliy raqobatbardoshlikni oshirish yo'llari ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xalqaro savdo nazariyalari iqtisodiyot ilmining eng qadimiy va fundamental yo'nalishlaridan biri bo'lib, Adam Smithning mutlaq ustunlik va David Ricardoning qiyosiy ustunlik nazariyalariga asoslanadi. Ushbu klassik nazariyalar mamlakatlarning tashqi savdodan qanday foyda olishini erkin savdo va xalqaro mehnat taqsimoti nuqtai nazaridan tushuntirib bergan. Keyinchalik Eli Heckscher va Bertil Ohlin tomonidan ishlab chiqilgan ishlab chiqarish omillari mavjudligi nazariyasi (Heckscher–Ohlin modeli) mamlakatlar o'zlarida serob bo'lgan omillardan samarali foydalangan holda mahsulot ishlab chiqarishi va eksport qilishi lozimligini asoslab berdi.

Zamonaviy iqtisodiyotda Paul Krugmanning Yangi savdo nazariyasi (New Trade Theory) alohida o'rin tutadi. U iqtisodiy masshtab samarasi (economies of scale) va iste'molchilar tanlovining xilma-xilligi sharoitida mamlakatlar o'xshash tarmoqlar doirasida ham savdo aloqalarini rivojlantirishi mumkinligini ta'kidlaydi [1].

Michael Porter o'zining "Mamlakatlarning raqobatdosh ustunligi" nazariyasida eksport salohiyatini belgilovchi asosiy omillar sifatida nafaqat tabiiy resurslar, balki innovatsiyalar, klasterlar va davlat siyosatini ham ko'rsatib o'tadi [2].

Mahalliy va MDH davlatlari olimlaridan A. Rasulov, Sh. Mustafokulov hamda V. Popov kabi tadqiqotchilar o'z ilmiy ishlarida o'tish davri iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda tashqi savdo aylanmasini diversifikatsiya qilish, import o'rmini bosuvchi ishlab chiqarishni rivojlantirish va eksportni qo'llab-quvvatlashda davlatning rolini tahlil qilganlar [5], [6]. Shu bilan birga, hozirgi global geo-iqtisodiy transformatsiyalar va raqamlashtirish jarayonlari sharoitida tashqi savdo balansini dinamik boshqarish masalalari yanada chuqurroq tadqiqotlarni talab etmoqda.

Bizning fikrimizcha, yuqorida keltirilgan nazariy manbalar va iqtisodchi olimlarning qarashlarini tizimlashtirgan holda ta'kidlash joizki, an'anaviy savdo modellari bugungi raqamli iqtisodiyot sharoitlarini yanada kengroq talqin etish imkonini beradi. Bizning yondashuvimizga ko'ra, M. Porterning raqobatbardoshlik nazariyasini zamonaviy davr nuqtai nazaridan rivojlantirgan holda, eksport salohiyatini belgilovchi muhim omillar qatorida nafaqat klassik klasterlar, balki raqamli ekotizimlar va elektron tijorat infratuzilmasi ham ko'rib chiqilishi maqsadga muvofiqdir. Global geo-iqtisodiy transformatsiyalar sharoitida importni maqbullashtirish va eksportni rag'batlantirish siyosati o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash, ya'ni savdo balansini dinamik boshqarish, milliy iqtisodiyotning tashqi omillarga moslashuvchanligini oshirishda muhim strategik ahamiyat kasb etadi.

Mahalliy va MDH olimlarining tadqiqotlarida o'tish davri iqtisodiyoti uchun davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarining ahamiyati yuqori baholangan. Bugungi kunda global geo-iqtisodiy o'zgarishlar, proteksionistik tendensiyalar va raqamli transformatsiya jarayonlari tashqi savdo balansini boshqarishning zamonaviy va innovatsion yondashuvlarini yanada rivojlantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda tashqi savdo aylanmasi, eksport va import ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlikni hamda ularning yalpi ichki mahsulot (YaIM) o'sishiga ta'sirini baholash maqsadida tizimli tahlil, qiyosiy iqtisodiy tahlil, statistik guruhlash hamda ekonometrik modellashirish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning empirik bazasini Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi, BMTning Savdo va rivojlanish konferensiyasi (UNCTAD) hamda Milliy statistika agentligining 2015–2025-yillarga oid rasmiy ma'lumotlari tashkil etdi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Tashqi savdo aylanmasi (TSA) mamlakatning xalqaro iqtisodiy hamkorlik tizimidagi faolligini belgilovchi eng muhim ko'rsatkichlardan biridir. So'nggi yillarda milliy iqtisodiyotning ochiqlik darajasi oshib, global ta'minot zanjirlariga integratsiyalashuv jarayoni jadallashdi. Statistik ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, TSA hajmi yildan-yilga barqaror o'sish sur'atlarini namoyon etmoqda. Shu bilan birga, savdo aylanmasining umumiy hajmi o'sishi bilan uning geografiasini va tovar guruhlarini bo'yicha tarkibida ham sezilarli o'zgarishlar kuzatilmoqda (1-jadval).

1-jadval

Tashqi savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (2021–2025-yy.)

Yillar	Tashqi savdo aylanmasi (mln. doll.)	Eksport hajmi (mln. doll.)	Import hajmi (mln. doll.)	Savdo balansini saldosi
2021	42 080	16 610	25 470	–8 860
2022	50 010	19 330	30 680	–11 350
2023	62 570	24 420	38 150	–13 730
2024	68 900	27 150	41 750	–14 600
2025 (prognoz)	75 200	31 400	43 800	–12 400

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tashqi savdo aylanmasi 2021-yildagi 42,08 mlrd. dollardan 2025-yilga kelib 75,2 mlrd. dollargacha yetishi prognoz qilinmoqda. Savdo aylanmasining o'sishi eksport va import hajmlarining kengayishi hisobiga yuz bermoqda. Shu bilan birga, import hajmining o'sishi eksportga nisbatan yuqoriroq bo'lganligi sababli savdo balansida manfiy saldo saqlanib qolmoqda. Mazkur holat rivojlanayotgan iqtisodiyotlar uchun xos bo'lib, ichki sanoatni modernizatsiya qilish maqsadida asbob-uskunalar va texnologiyalar importining yuqori ulushi bilan izohlanadi. Savdo balansining barqarorligini ta'minlash uzoq muddatli istiqbolda eksport tarkibini sifat jihatidan takomillashtirishni taqozo etadi.

Eksport ko'rsatkichlari milliy mahsulotlarning jahon bozorida raqobatbardoshligini aks ettiruvchi muhim indikator hisoblanadi. Mamlakat eksport siyosatining strategik maqsadi an'anaviy xomashyo va yarim tayyor mahsulotlar (gaz, paxta, metallar) eksportidan yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar eksportiga bosqichma-bosqich o'tishdan iboratdir. So'nggi yillarda to'qimachilik, elektrotexnika, kimyo va oziq-ovqat sanoati mahsulotlari eksportida ijobiy dinamika kuzatilmoqda.

Eksportni diversifikatsiya qilish darajasini baholash uchun Herfindahl–Hirschman indeksidan (HHI) foydalanildi. Indeks qiymatining pasayishi eksport tovarlari tarkibining diversifikatsiyalashib borayotganini anglatadi. Sanoat siyosati doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida tayyor mahsulotlarning umumiy eksportdagi ulushi 2015-yildagi 28 foizdan 2024-yilga kelib 42 foizga yetdi. Ayniqsa, to'qimachilik klasterlarining tashkil etilishi paxta xomashyosini ichki bozorda chuqur qayta ishlash va tayyor kiyim-kechak mahsulotlari sifatida eksport qilish imkoniyatlarini kengaytirdi.

Shu bilan birga, eksport geografiasini kengaytirish ham muhim ahamiyatga ega. An'anaviy bozorlar hisoblangan MDH mamlakatlaridan tashqari, Yevropa Ittifoqining GSP+ preferensiyalar tizimidan foydalangan holda Yevropa bozorlariga, shuningdek, Yaqin Sharq va Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlariga chiqish imkoniyatlari kengaymoqda. Transport-logistika xarajatlarini kamaytirish maqsadida yangi xalqaro temir yo'l va avtomobil yo'laklarini rivojlantirish eksportyorlar faoliyatini sezilarli darajada yengillashtirmoqda.

Import ko'rsatkichlari va uning tarkibi mamlakat ichki bozorida talab hamda investitsion muhit holatini aks ettiradi. Ko'p hollarda import salbiy hodisa sifatida talqin qilinsa-da, rivojlanayotgan iqtisodiyotlar uchun u texnologik yangilanishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shu bois davlatning import siyosati importni shunchaki cheklashga emas, balki uning tarkibini optimallashtirishga yo'naltirilishi lozim.

Import tarkibini uchta asosiy guruhga ajratish mumkin: kapital tovarlar (mashina va uskunalar), oraliq tovarlar (xomashyo va butlovchi qismlar) hamda iste'mol tovarlari. Milliy iqtisodiyotda import tarkibining tahlili shuni ko'rsatadiki, jami importning 45 foizdan ortig'ini mashinalar, asbob-uskunalar va transport vositalari tashkil etadi. Bu iqtisodiy modernizatsiya jarayonlarini qo'llab-quvvatlovchi ijobiy tendensiya bo'lib, import qilinayotgan mahsulotlar kelgusida ichki ishlab chiqarishni kengaytirish va eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, iste'mol tovarlari, ayniqsa, mamlakat ichida ishlab chiqarish imkoniyati mavjud bo'lgan oziq-ovqat va yengil sanoat mahsulotlari importining yuqoriligi ichki bozorni rivojlantirish imkoniyatlarini yanada kengaytirish zaruratini ko'rsatadi.



Bunday sharoitda tarif va notarif vositalardan (sanitariya, fitosanitariya talablari va texnik reglamentlar) oqilona foydalanish, shuningdek, Jahon savdo tashkiloti (JST) qoidalariga muvofiq holda ichki ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Metodologiya bo'limida taklif etilgan ko'p omilli regressiya modeli asosida o'tkazilgan hisob-kitoblar natijasida quyidagi regressiya tenglamasi olindi:

$$Y = 2.45 + 0.38 \cdot X_1 + 0.12 \cdot X_2$$

Model natijalarining iqtisodiy talqini shuni ko'rsatadiki, tayyor mahsulotlar eksporti hajmining (X_1) 1 foizga ko'payishi real YalM o'sish sur'atini 0,38 foiz bandga oshiradi. Mashina va uskunalar (kapital tovarlar) importining (X_2) 1 foizga oshishi esa YalMning 0,12 foiz bandga o'sishiga xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, texnologik import mamlakatda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish orqali iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlayotganini tasdiqlaydi.

Demak, tashqi savdo siyosatini faqat proteksionizm yoki to'liq liberallashtirish shaklida emas, balki selektiv (tanlovchi) yondashuv asosida tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi mahalliy korxonalarni xomashyo va texnologik import qilishda soliq hamda bojxona imtiyozlari orqali rag'batlantirish, shuningdek, tayyor mahsulotlar eksportini qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan ilmiy tadqiqot va tahlillar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi. Global iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida tashqi savdo aylanmasi barqaror o'sish sur'atlarini namoyon etmoqda. Shu bilan birga, savdo balansining barqarorligini ta'minlash maqsadida eksport tarkibini innovatsion va texnologik mahsulotlar hisobiga takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Eksportni diversifikatsiya qilish jarayonida to'qimachilik, kimyo va elektrotexnika sanoatida klaster tizimini yanada rivojlantirish, shuningdek, tayyor mahsulotlar brendlarini xalqaro bozorlarda faol targ'ib etish maqsadga muvofiqdir.

Import tarkibini optimallashtirishda mashina va texnologiyalar ulushini saqlab qolgan holda, ichki bozorda raqobatbardosh iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni rag'batlantirish va import o'rnini bosuvchi mahalliy ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Amaliy taklif sifatida milliy eksportyorlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida eksport kreditlarini sug'urtalash mexanizmlarini soddalashtirish, Jahon savdo tashkilotiga (JST) a'zo bo'lish jarayonida milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga uyg'unlashtirish hamda raqamli savdo (e-commerce) platformalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan dasturlarni yanada rivojlantirish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Krugman, P. (1980). *Scale Economies, Product Differentiation, and the Pattern of Trade*. American Economic Review, 70(5), 469–479.
2. Porter, M. E. (1990). *The Competitive Advantage of Nations*. Harvard Business Review, 68(2), 73–93.
3. IMF. (2024). *World Economic Outlook: Navigating Global Fragmentation*. Washington, DC: International Monetary Fund.
4. World Bank. (2025). *Trade Watch: Global Trade Dynamics and Supply Chain Resilience*. Washington, DC: World Bank Group.
5. Rasulov, A. A. (2022). *Milliy iqtisodiyotning xalqaro raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari*. Toshkent: Iqtisodiyot.
6. Mustafokulov, Sh. I. (2023). *Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning tarif va notarif uslublari*. Iqtisod va moliya, 4(12), 45–52.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

6-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>